

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7833364>

**Ochilova Guljahon Hamroqulovna**

*Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlanch'ich ta'lif) yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *Xalq og'zaki ijodi, odob, axloq, axloqiy tarbiya, ertak, pand nasihat.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lif muassasalari, xususan boshlang'ich ta'lif o'quvchilari ta'lif tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor axamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining – Ta'lif to'g'rsidagi qonunga muvofiq "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tasdiqlanib, u milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Asosiy qism Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lif berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo'nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e'tiborda bo'lishi lozim.O'quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o'stirishning zaruriy omillaridan biri lug'atlar ustida ishlashdir.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib,qiziqib,

obrazlarga kirib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, tarbiyaviyligi,do'stona munosabatlarning qadrlanishi, yovuzlik ustidan doimo g'alaba qozonilishi, o'tkirligi,manodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Xalq og'zaki ijodidagi ertak, maqol, rivoyat, qissa,hikoyalarning aksariyati real hayot tasviri, bo'lib o'tgan voqealardan olingan qisqa personajlar bilan qo'shilib ketadi. Xalq og'zaki ijodi o'tkir, maroqli syujeti,voqealarning rivijidagi favqulotta ajoyibvaziyat bolalarni maftun qiladi, ulardagi mard, kuchli, ziyrak, topqir, jasoratli, dovyurak chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik, kuchining- yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga jalp etadi. Ertakda hikoya qilingan qabul qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi,ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi,

ifoda vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahm dil saxiy, adolatli, hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilat timsoli bo'ladi.

Ertakdag'i o'qituvchi qiymati shundan iboratki, bolalarda unda to'g'rilik halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikkan uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo'lishini istayd ilar va bunga ishonadilar. Bola ertaklarga ishonsa, qiziqlas, dunyoqarashi, fikrlashi, bilimi yanada ortadi. Masalan, "Halollik" ertagida asosiy fikr kambag'allarga yordan ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq

istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, "Hiylagarning jazosi ertagida soddadilning to'g'rilihi hiylagarning makri ustidan g'olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertakham to'g'ri so'zlikning g'alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g'alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan. Ertak bolalarda qahramonlarning hatti- harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning

doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. Bolalar ertakni tahlil qilish jarayonida "

Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", "nima uchun?" , ".... Nima uchun jazoland?" (yoki rag'batlantirildi") , "Nima uchun ertakdag'i bazi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari hamyordam beradi? (yoki bazilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javop toppish jarayonida mushohadaqiladilar, muhokama qilip, xulosaga keladilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qib beriladi.

"Bo'rining tabib bo'lgani haqqidagi ertak" (Anvar Obidjon), "Ko'zacha bilan tulki" kabi ertaklar aniq hayotiy hikoya tarzida obrazlilik asosida o'qib eshittiriliadi va tahlil qilinadi. Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish savollarga javob berish, o'quvchilarining o'zları ertak mazmuniga oid savollar tuzip, javob berishlari, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalilanadi. Bunday ertaklarda hayvonlar odatlari tahlil qilinadi. Ertaklar o'qib berilganda har bir hayvonlarning xarakteriga moslab o'qib berilishi lozim. O'qituvchi har bir qahramon roliga kirib o'qish juda muhim ahamiyatga ega.

Ammo bunday ertaklarni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya etilmaydi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaning umumiyligi jihatlarini aks ettirishdan tashqari, yaxshilik, ezgulik va odamiylikni go'zal, ibratli misollarda tasdiqlashi, da'vat etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab o'quvchilari ayniqsa 2-3- sinf o'quvchilari ma'lum darajada o'qish ko'nikmasini egallaganliklari uchun matn, ertak, hikoya, she'r, rivoyatlarni, ustida mustaqil ishslashga ko'proq e'tibor berish lozim. O'quvchilarining topshiriqni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlay bilishi, ishga ijodiy yondashishi zarurdir.

O'quvchilar bunday ishlarni o'z-o'zidan o'rganib qolmaydi, albatta bunday bilim ko'nikma va malakalar bolalarga o'qituvchining alohida o'tkaziladigan mashg'ulotlarini egallaydilar. Faqat o'qituvchi rahbarligida ishlagandagina, ular fikrlashga, amaliy mashg'ulotlarni ijodiy bajarishga, yo'l

qo'yilgan xatolarni toppish va uni tuzatishga o'ragnadilar.

Ma'lumki ertaklarda –didaktika, ibrat vositalari mujassamlashtiriladi. Ularda ijodalanganuydirma hodisalarni oldindan ko'ra bilishlilik xususiyati ibratlidir. Asrlar osha sayqallahib, soda va teran mazmunlari bilan bizgacha yetib kelgan ertaklar eng sevimli, eng jizibali xalq ijodi namunalaridandir. Ertaklarning badiiy kuchi- ularning xalq orzu-umidlari va turmush haqiqatlari bilan birgalikda, odamlar ruhuyatini o'zida aks ettirishda, kattalarga ham, kichiklarga ham birday yoqimli, qiziqarli bo'lishidadir. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda yilning to'rt fasli, tabiat hodisalari, kishilarning his tuyg'ulari, ichki kechinmalar, hatti harakatlari ham ifodalanadi. Bola ulg'aygan sari uning dunyoqarashi, fikrlashi, atrof muhitga bo'lgan e'tibori, xotira va tushunchalari rivijlanib boradi. Tashqi dunyo uning ko'z o'ngida kengayib, jilolanib boraveradi. Bolalarda inson obrazlari tobora aniq va ravshanroq tushunula boshlanadi. Bolalarda asta sekin yolg'onchi, hiylakor kishilar, yaxshi xislatli, adolatli, vijdonli, shafqatli, rahmdil kishilar haqida fikr tug'uladi. Buni chuqur his qilgan bolalar hayotiy voqealari, inson obrazi

afsonaviy ravishda tasvirlangan- Ur to'qmoq, -ochil dasturxon,- uchar gilam, - qaynar xumcha, - Dehqon bilan ayyiq, - zumrad va qimmat kabi ertaklar , - Qarg'a bilan mushuk, -Yolg'onchi cho'pon kabi ertaklar bolalarni yaxshi fazilat sohibi qilib tarbiyalashda, ularning shaxs sifatida ulg'ayishida muhim vosita bo'lib sanaladi. Zumrad va qimmat ertagi asosan, yaxshi axloqlilik xislati Zumradning, yomon xulqlilik xislati Qimmatning hatti harakatlarida aks ettirilgan.

Zumrad odobli xush muomilali, kamtar mehnatsevar bo'lgani uchun hatto sehrgar kampir mehriga, hurmatiga sazovor bo'ladi. U bergen boylik bilan otasini ham xursand qildi. Ota va bola baxtiyor hayotga erishdilar. Tabiat o'z quchoqg'ida uni ardoqladi. Qimmat odobsizligi, qo'polligi, ishyoqmasligi, dangasaligi, o'jar va rahmsizligi, kattalarga nisbatan hurmatsizligi tufayli, sehrgar kampir qahriga uchradi. Hozirgi zamon ta'lim tarbiyasi, istiqlol mafkurasi anashu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarni sharaf bilan bajarishi mumkin.

Xulosa: O'quvchilarning fikr darajasi, ongi, dunyoqarashlarini oshirish ularni mustaqil fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir.

#### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. T. G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar"  
"Tafakkur", nashriyoti, Toshkent – 2011 yil

6 – TOM 4 – SON / 2023 - YIL / 15 - APREL

2. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. -T.: 2007.
3. T. G'afforova, Sh. Nurullayeva, O'qish kitobi, 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma-T., "Sharq", 2012
4. TG'afforova, Sh.Nundlayeva. O'qish kitobi. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T.. "Sharq". 2012. - 144 h
5. NSaidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyaiar. T. "Moliya", 2003 172 b.
6. RJo'ruev, A.Zunnunov. Ta'lim jarayomda o'quv ranlarini inlegratsiyalash. T.. "Sharq". 2005. 80 b.
7. T.G'afforova va boshqalar "O'qish kilobi", 1-sinf. I . "Sharq", 2013 128-b.
8. T. G'afforova "Boshlang'ich la'limda zamonaviy pedagogik lexnologiyt)- lar". T.. "Tafakkur", 201 1-yil.
9. O'zb.ek lilining izohli lug'ati, I V-jiddlar. "O'zbekiston inilliy ensiklo- pediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005 200X-yillar.